

# **Mavzu: Atmosfera yog'inlari.**

Maruzachi: dots. Karimov S.K

Ass. Is'hakov G'.F

# Atmosfera yog'inlarining hosil bo'lishi va ularning turlari

- Tabiatda har doim suv bug'larining suyuq yoki qattiq holatga o'tish jarayoni kuzatiladi. Suv bug'larining suvga aylanishi **kondensatsiya** deb ataladi, suv bug'larining qattiq holatga aylanishi esa **sublimatsiya** deb ataladi.
- Avvalgi bobdan ma'lumki, atmosferadagi suv bug'larining kondensatsiyasi natijasida o'z tarkibida mayda suv tomchilari to'plami yoki kichik muz kristallaridan iborat bulutlar hosil bo'ladi.

- Bulutni tashkil etuvchi elementlarning yog'in sifatida yerga tushishi uchun, ular anchagina kattalashib, pastdagi havoning qarshiligini yengishi kerak.
- Atmosfera yog'inlari X harfi bilan belgilanadi va mm da ifodalanadi.
- Atmosfera yog'inlari ikki asosiy guruhga bo'linadi: birinchisi-bulutlardan tushadigan yog'inlar-yomg'ir, qor, do'l, tugmacha qor va b.; ikkinchisi-er yuzasida va undagi narsalarda havodagi suv bug'larining kondensatsiya va sublimatsiya bo'lishi natijasida hosil bo'ladigan shudring, qirov, sumalak, yaxmalaklar.

# Er usti va ustidagi narsalar ustida hosil bo'luvchi yog'inlar.

- **SHudring-** tungi soatlardagi musbat havo haroratida tuproq, o't va gorizontal joylashgan narsalar ustida paydo bo'ladigan mayda suv tomchilari.
- **Qirov-** xuddi shudring kabi gorizontal joylashgan narsalar ustida hosil bo'ladigan ammo qattiq mayda kristallik yog'inlaridir. Qirov radiation, sovib qolish va manfiy havo harorati sharoitida paydo bo'ladi.
- **Sumalak-** daraxtlar shoxlarida, simlarda va boshqa narsalarda ayozli ob-havo shamol sust esganda kuzatiladi. Kristallik yaxmalak ko'proq havo harorati - 150 dan past bo'lganda paydo bo'ladi.

- O'zbekiston Respublikasida yog'inlarning taqsimlanish xususiyati xududning keng quruqlik ichkarisida joylashgan, qisman subtropik mintaqa va turli-tuman reliefni o'z ichiga olganligi bilan belgilanadi.
- Atmosfera yog'inlarining xudud bo'yicha taqsimlanishida ikki xolat kuzatiladi: tog'li joylarda yog'in miqdorining nixoyatda har turligi va ularning cho'lli va past tekislik mintaqalarda hamligidir. qoraqum va qorqum cho'llarida va ularning Orol dengiziga yondoshgan joylarida yiliga 100 mm dan kam va ayrim yillari 55 mm dan kam yog'in yog'adi. Tog'oldi joylarga yaqinlashgan sari yog'inlar miqdori o'sadi

- Xisor va Zarafshon tog' tizmalarining tarmoqlarida va Farg'ona vodiysi atrofidagi tog' yonbag'irlarida 400-500 m balandlikda 200-300 mm gacha yog'inlar yog'adi. Ba'zi bir shamoldan pana quruq yonbag'irlarda shunday yog'in miqdori 600-800 m balandlikgacha kuzatiladi. Eng ko'p namlikni Тянь-Шань tog' tizimining g'arbiy yonbag'irlarida kuzatiladi; yil davomida 2000 mm yog'in yog'adi.

- Farg'ona tog' tizmasining Farg'ona vodiysiga qaragan janubiy-g'arbiy yonbag'irlarida yiliga 1500-2000 mm gacha yog'in yog'adi. Nam havo oqimiga ro'para, g'arbga ochiq tog' vodiylarida va keng havzalarda ham yog'inlar ko'p yog'adi. Bunga misol bo'lib, CHirchiq daryosi vodiysi xizmat qiladi, u yerda 800-900 mm gacha yog'in yog'adi va Oxongaron daryosi vodiysining 3000 dan 3400 mm gacha oraliqda yiliga 1300-1400 mm yog'in yog'adi.